



VIZANTIYA IMPERIYASINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

Jahongirova Munira Muroddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola Vizantiya imperiyasining tashkil topishi, uning siyosiy, madaniy, va iqtisodiy rivojlanishi, hamda imperiyaning qulashiga olib kelgan jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan. Vizantiya Rim imperiyasining sharqiy qismi sifatida tashkil topib, yevropaliklar va sharqliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynagan. Maqolada Konstantin I tomonidan imperiyaning poytaxti sifatida Konstantinopolning tanlanishi, Yustinian davrida qonunchilik va hududiy kengayish islohotlari, diniy va madaniy rivojlanish, turli urushlar va bosqinlar, hamda oxir-oqibat 1453-yilda Usmonli imperiyasi tomonidan qo'lga olinishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Vizantiya imperiyasi, Konstantinopol, Yustinian I, sharqiy Rim imperiyasi, xristianlik, Ayasofiya, salib yurishlari, Usmonli imperiyasi, madaniy meros*

АННОТАЦИЯ: *эта статья посвящена изучению основания Византийской империи, ее политического, культурного, и экономического развития, а также процессов, которые привели к падению империи. Византия была основана как восточная часть Римской империи и играла важную роль во взаимодействии между европейцами и восточными людьми. В статье подробно описывается выбор Константинополя Константином I в качестве столицы империи, реформы законодательства и территориальной экспансии при Юстиниане, религиозное и культурное развитие, различные войны и вторжения, а также возможный захват Османской империей в 1453 году.*

Ключевые слова: *Византийская империя, Константинополь, Юстиниан I, Восточная Римская империя, христианство, Собор Святой Софии, крестовые походы, Османская империя, культурное наследие*

ANNOTATION: *this article is devoted to the study of the founding of the Byzantine Empire, its political, cultural, and economic development, as well as the processes that led to the collapse of the Empire. Byzantium was founded as the eastern part of the Roman Empire and played an important role in the interaction between Europeans and Orientals. The article details the choice of Constantinople as the capital of the Empire by Constantine I, reforms of legislative and territorial expansion under Justinian, religious and cultural development, various wars and invasions, and the eventual capture by the Ottoman Empire in 1453.*

Keywords: *Byzantine Empire, Constantinople, Justinian I, Eastern Roman Empire, Christianity, Hagia Sophia, crusades, Ottoman Empire, cultural heritage*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



330-yilda Rim imperatori Konstantin I poytaxtni Rimdan Vizantiya shahriga ko'chirdi va shahar nomini Konstantinopol deb o'zgartirdi¹. Bu qaror siyosiy va strategik sabablar bilan qabul qilingan bo'lib, shahar savdo yo'llari chorrahasida joylashgan edi. Konstantin imperiyani yangi diniy markaz sifatida rivojlantirish maqsadida xristianlikka katta e'tibor qaratdi. Konstantinopol Vizantiya imperiyasi uchun savdo, mudofaa va siyosiy jihatdan muhim markazga aylandi.

527-yildan 565-yilgacha hukmronlik qilgan Yustinian I imperiyaning eng ko'zga ko'ringan hukmdorlaridan biri edi. Yustinianning asosiy yutug'i bu "Yustinian Kodeksi" deb atalgan qonunlar to'plami bo'lib, bu to'plam huquqiy tizimni tartibga solishga va adolatni o'rnatishga qaratilgan edi. Uning maqsadi Rimning o'zidan qolgan madaniyatni saqlab qolish va Sharqiy Rim imperiyasini mustahkamlash edi.

Yustinian I Italiya, Shimoliy Afrika, va Ispaniyaning ba'zi hududlarini qo'shib olib, imperiyani geografik jihatdan kengaytirdi. Ayasofiya soborini qurdirishi bilan ham mashhur bo'lib, u Vizantiya san'ati va me'morchiligining cho'qqisi hisoblanadi. Ayasofiya pravoslav dunyosining muhim markazlaridan biriga aylandi va Vizantiya madaniyatini boshqa davlatlarga yetkazishda muhim rol o'ynadi.

Vizantiya imperiyasida yunon tili asosiy til sifatida tanlangan va madaniy rivojlanishning muhim qismi bo'lib qolgan. Xristianlik davlat dini sifatida tan olindi va bu birlik imperiya hududlarida diniy birdamlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Xristianlikning tarqalishi bilan birga ikonalar va diniy san'at rivojlanib, butun sharqiy dunyoda keng tarqaldi. Ikonalar Vizantiya san'atining asosiy qismiga aylandi, va ikonalar orqali diniy tushunchalarni xalq orasida tarqatishga harakat qilindi.

Vizantiya me'morchiligida yuksak nafislik va g'arbiy uslublar bilan sharqiy uslublarning uyg'unlashuvi kuzatiladi. Bu ayniqsa, soborlar, jumladan Ayasofiyada, ochiq ko'rinadi. Vizantiya madaniyati pravoslav cherkovi va pravoslav davlatlari uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

VII-asrda Vizantiya imperiyasi arablar va slavyan qabilalari bilan uzoq davom etgan urushlar natijasida kuchsizlanib qoldi². Arab xalifaligining kuchayishi imperiya uchun jiddiy xavf tug'dirib, ba'zi hududlarni boy berishga olib keldi. Shu davrda Vizantiya ichki islohotlar o'tkazdi va imperiyani qayta tashkil etishga harakat qildi. Temalar tizimi joriy etilib, ma'muriy hududlar harbiy okruglarga bo'lindi. Bu tizim orqali armiyani mustahkamlash va ichki xavfsizlikni ta'minlashga erishildi.

Bu davrda Vizantiya diplomatik aloqalarni rivojlantirish orqali ichki va tashqi siyosatni barqarorlashtirishga harakat qildi. Konstantinopol sharq va g'arb o'rtasidagi asosiy savdo markazi sifatida iqtisodiy o'sishga erishdi va bu imperiyaga iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lish imkonini berdi.

¹ Rejabboyev.N – "Jahon tarixi" – Namangan-2022. 40b

² Saidov, B. "Yustinian va Vizantiya imperiyasi madaniy merosi." Toshkent: Sharq, 2021 – 25b





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



IX-XI asrlarda imperiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchayib, yana rivojlanish davriga kirdi³. Vizantiya bu davrda o'z hududlarini qayta kengaytirishga, san'at, adabiyot va ilm-fan sohalarida yutuqlar qo'lga kiritishga intildi. Konstantinopol nafaqat diniy, balki ilmiy markaz sifatida ham tanildi. Bu davrda Vizantiya ilmiy va madaniy merosni saqlab qolish bilan birga yangi yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Tasviriy san'atda qadimgi davrdan o'rta asrlarga o'tish badiiy madaniyatda chuqur inqirozlarni yuzaga keltirdi. Tasviriy san'atning ayrim turlari vujudga keldi, mavjudlari yo'qolib ketdi. Cherkov va davlat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan san'at turlari (ibodatxona tasvirlari, ikona va kitob miniatyurasi) muhim ahamiyat kasb etdi. Qadimgi ijodiy uslub o'rniga o'rta asrlarga xos xususiyatlar (jumladan, shartlilik) shakllandi. Haykaltaroshlik inqirozga uchrab qadimgi nafis shakllar yemirildi. Ma'lum davrdan keyin Vizantiya san'atida haykaltaroshlik butunlay yo'qolib, faqat bo'rtma tasvirlarda saqlanib qoldi. Badiiy hunarmandlik buyumlari (tosh, suyak, metall), IV-V asrlar cherkov koshinlari (Avliyo Georgiy cherkovi, IV asr oxiri)dagina qadimgi ohanglar muhim bo'lib, borliq go'zalligini avvalgidek his etish sezilib turadi.

Ushbu davrda imperiya slavyan qabilalari bilan aloqalarni kuchaytirib, sharqiy Yevropada o'z ta'sirini kuchaytirdi. Vizantiya cherkovi pravoslav an'analarning tarqalishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Slav xalqlari o'z yozuvlariga asos solgan va Vizantiya madaniyati ta'sirida rivojlangan.

1204-yilda 4-chi Salib yurishlari davrida salibchilar Konstantinopolni bosib olib, shaharda talon-taroj qildilar. Bu hodisa imperiyaning zaiflashishiga sabab bo'ldi va davlatning ta'siri sezilarli darajada kamaydi. Vizantiya o'zining asosiy boyliklaridan ayrilib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashib qoldi. Ushbu davrda imperiya bir necha kichik davlatlarga bo'linib ketdi, va bu vaqtinchalik davlatlar orasidagi ziddiyatlar tufayli qayta tiklanishga to'siq bo'ldi.

Vizantiya imperiyasi Usmonli imperiyasining kuchayishi bilan tobora zaiflashib bordi. 1453-yilda Usmonli sultoni Mehmed II Konstantinopolni egallab, shaharni Usmonli imperiyasi poytaxti qilib e'lon qildi. Bu hodisa bilan Vizantiya imperiyasi tugatildi va yangi bosqich boshlandi. Konstantinopol (hozirgi Istanbul) Usmonli imperiyasi davrida ham sharq va g'arb o'rtasidagi madaniy, savdo va siyosiy aloqalarda muhim markaz bo'lib qoldi.

Vizantiya haqida so'z borar ekan imperiya o'z tarixida buyuk yutuqlarga erishgan va sharqiy xristianlik hamda pravoslav madaniyatining shakllanishiga katta hissa qo'shgan davlatdir. Imperiya huquqiy tizim, san'at, me'morchilik va madaniyat sohalarida chuqur iz qoldirdi. Vizantiyaning hozirgi zamon uchun ahamiyati uning madaniy, diniy, siyosiy va huquqiy merosida yotadi. Vizantiya Imperiyasi, o'zining rivojlangan davlat boshqaruvi, huquqiy tizimi, san'ati va diniy an'analari bilan zamonaviy dunyoda ko'plab konseptlarning rivojlanishiga asos bo'lgan. Bugungi kunda uning ta'siri, xususan, Grek Xristianligi, Rim huquqi, diplomatiya, va davlat boshqaruvi tizimlarida yaqqol ko'rinadi. Shunday qilib,

³ Mirzayev, S. "O'rta asr davlatlari tarixi." Toshkent: O'zbekiston, 2020 – 64b





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Vizantiya merosi bugungi kunda ham madaniyat, siyosat va huquq sohalarida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, U. "Vizantiya tarixining asosiy bosqichlari." Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
2. Saidov, B. "Yustinian va Vizantiya imperiyasi madaniy merosi." Toshkent: Sharq, 2021.
3. Tursunov, A. "Antik davr tarixi va madaniyati." Samarqand: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Mirzayev, S. "O'rta asr davlatlari tarixi." Toshkent: O'zbekiston, 2020.
5. Jo'rayev, M. "Dunyo madaniyatlari tarixi." Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Rahmonov, Q. "Sharqiy Yevropa xalqlari va Vizantiya." Samarqand: Ma'naviyat, 2019.
7. Rejabboyev.N – "Jahon tarixi" – Namangan-2022. 40-51b.

